



WAYS TO INCULCATE HUMAN QUALITIES IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH MUSIC AND PLAY ACTIVITIES

Dilshoda H. Khamidova

Master's student

Pedagogical Institute of Termez State University

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: game, mental education, moral education, developed personality, aesthetic education, role play, plot role play, musical activity, listening to music

Abstract: This article discusses the use of effective ways and means for the development of human qualities through music and play activities in preschool education, the role of play in children's lives.

Received: 07.05.22

Accepted: 09.05.22

Published: 11.05.22

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA MUSIQA VA O'YIN FAOLIYATI ORQALI INSONPARVARLIK XUSUSYATLARINI TARBİYALASH YO'LLARI

Dilshoda H. Hamidova

Magistratura talabasi

Termiz davlat universitetining Pedagogika Instituti

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'yin, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, rivojlangan shaxs, estetik tarbiya, rolli o'yin, syujetlirolli o'yin, musiqali faoliyat, musiqa tinglash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa va o'yin faoliyati orqali insonparvarlik xususyatlarini rivojlantirish uchun samarali yo'llar va vositalardan foydalanish, o'yinning bola hayotidagi o'rni masalalari yoritilgan.

СПОСОБЫ ВОСПИТАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У ДОШКОЛЬНИКОВ ЧЕРЕЗ МУЗЫКАЛЬНО-ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Дилшода Х. Хамидова

магистрант

Педагогический институт Термезского государственного университета

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: игра, умственное воспитание, нравственное воспитание, развитая личность, эстетическое воспитание, ролевая игра, сюжетно-ролевая игра, музыкальная деятельность, слушание музыки.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование эффективных способов и средств развития качеств человека через музыкально-игровую деятельность в дошкольном образовании, роль игры в жизни детей.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jamiyatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keladi. Haqiqatdan ham o'yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir.

ASOSIY QISM

Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin orqali bolalarda jamoaviy tarzda o'ynash ko'nikmasi o'zro bir birini hurmat qilish kabi insoniy xislar ortib boradi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya'ni, to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam

beradi. O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida shifokorlik yoki o'qituvchilik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlarni shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdin iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga, o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas)lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'yekti sifatida shakllana O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir. O'yinda bola kishilarning axloqodob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib,

ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Bolaga musiqiy ta'lim - bu musiqa san'atining ta'siri, qiziqishlari, ehtiyojlari, musiqa estetik munosabatini shakllantirish orqali bolaning shaxsini maqsadli shakllantirish. Boladagi musiqiy rivojlanish - faol musiqiy faoliyat jarayonida bolaning shaxsiyatini shakllantirish natijasidir. Musiqiy ta'lim, bolaning shaxsiyatini shakllantirish vazifalari bola shaxsini har tomonlama va barkamol tarbiyalashning umumiy maqsadiga bo'ysunadi va musiqa san'atining o'ziga xosligi va maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. Musiqaning bolalar tarbiyasiga ta'siridan ko'zlangan maqsad - ularni butun musiqa madaniyati bilan tanishtirishdir. Bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda musiqaning bola shaxsini shakllantirishga ta'siri juda katta. Musiqa, har qanday san'at singari, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga qodir, axloqiy va estetik tajribalarni uyg'otadi, atrof-muhitni o'zgartirishga, faol fikrlashga olib keladi. Umumiy musiqiy ta'lim asosiy talablarga javob berishi kerak: universal bo'lishi, barcha bolalarni qamrab olishi va bola shaxsini shakllantirishning barcha jihatlarini har tomonlama, uyg'un rivojlantiruvchi. Bolalarning musiqiy tajribasi hali ham juda oddiy, ammo u juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Musiqiy faoliyatning deyarli barcha turlari eng asosiy asoslarda bolalar uchun mavjud bo'lib, ta'limning to'g'ri shakllantirilishi ularning musiqiy, musiqiy va bolaning shaxsiyatida umumiy rivojlanishining ko'p qirrali bo'lishini ta'minlaydi. Atrofdagi hayotga estetik munosabatni tarbiyalash, qobiliyatlarni rivojlantirish, hissiy jihatdan empatiya qilish, asarlarda ifodalangan turli his-tuyg'ular va fikrlar orqali bola obrazga kiradi, xayoliy vaziyatda ishonadi va harakat qiladi. Musiqa ta'siri uni "boshqalar uchun xursand bo'lish, bironing taqdiri haqida, o'zinkidek tashvishlanish uchun ajoyib qobiliyat" ga undaydi. Musiqa bilan muloqotda bo'lgan bola har tomonlama rivojlanadi, bolaning jismoniy qiyofasi yaxshilanadi, garmonik aloqalar o'rnatiladi. Qo'shiq aytish jarayonida nafaqat musiqiy quloq, balki qo'shiq aytuvchi ovoz va, demak, ovozli vosita apparati ham rivojlanadi. Musiqiy ritmik harakatlar to'g'ri turishni, harakatlarni muvofiqlashtirishni, ularning moslashuvchanligi va plastikligini rag'batlantiradi.

Insonparvarlik — insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-u saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlarini, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik qilish.

Insonparvarlik – Tarbiyaning insonparvarlik g'oyisi muhim tushuncha bo'lib unda inson yoki shaxsning taqdiri yotadi. Insonparvarlik g'oyasi har bir halqning azaliy qadriyati hisoblanadi, umimiy qadriyat hisoblanadi.

Tarbiyaning markazida shaxs turar ekan har bir ison komil ison bo'lishga intilishi kerak shundagina biz kutgan natijaga erishimiz mumkin.

Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va b. asarlarida Insonparvarlik, inson erkinligi, uning qadr-qimmatini g'oyalari olg'a surildi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tin-chlikni qat'iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaa-ti, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham Insonparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag'al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, saho-vatli va insofli bo'lishga da'vat qilinadi.

Tarbiychi bolalarga insonparvarlik tuyg'usini singdirish uchun mashg'ulot davomida bolaga turli ibratli hikoyalar, she'rlar, maqollar va qo'shiqlardan foydalanishi lozim. Bu jarayonda o'yin ham samarali faoliyatni aks ettiradi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyat turi. Bola o'yin orqali dunyoni biladi, oyinda ijtimoiylashadi va axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi *ijtimoiylashuv*. Ijtimoiylashuv - bu bolaning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv - bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot normalarini o'zlashtirishdir.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida etakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash egallaydi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq *maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik hissining shakllanishi*. Maktabgacha *yoshdagi bolalarda insonparvarlik hissining shakllanishi* kattalar bilan muloqotd jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va o'yin, musiqa faoliyati jarayonida mustahkamlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning etakchi vazifasi insonparvarlik munosabatlarini tarbiyalashdir. Ushbu munosabatlar shakllanishi uchun axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlarini bilish zarur. Bu birinchi navbatda axloqiy ongini, axloqiy his-tuyg'ularni, axloqiy xulq-atvorning ko'nikmalarini va odatlarini shakllantirishdir. Axloqiy tarbiya tizimida ushbu tarkibiy qismlar birdamlikda namoyon bo'ladi.

XULOSA

Shaxsiyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishi bolalar axloqiy munosabatlarga kirishish jarayonida sodir bo'ladi. Maktabgacha yoshda allaqachon ushbu munosabatlar kattalarning ma'lum

qoidalari, ko'rsatmalari va talablari asosida qurilgan. Xulosa o'rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar va ularda turli axloqiy sifatlar jumladan insonparvarlik turli ma'naviy ma'rifiy qadriyatlar ham shakllanadi. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va atarbiyachilarning asosiy vazifalari hamda o'z oldiga qo'ygan maqsadlari ham bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T., “Tafakkur bo'stoni”, 1992.
2. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo.
3. R. G`. Qodirov, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.:2005, (6-9)
4. Ta'lim to'g'risidagi qonun T.: 23 sentabr 2020-yil
5. O'zbekiston respublikasining qonuni Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan (1)
6. N.M Aksarina, Go'dak bolalar tarbiyasi, T.:1983.